



MUSTAQIL TA'LIMNING TALABALAR O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI.

Z.A.Mirzayeva

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Umida Nurmatova

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14685284>

Anotatsiya: Bu maqolada mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Ya'ni talabalarga yordam beradigan hayotiy tajribalar asosida yaratilgan ilmiy izlanishlar, o'z kuchiga ishonch va o'zini rag'batlantira olish ko'nikmalari berilgan. Shu bilan birga har qanday tanqidiy fikrlar, munozalar va albatta uzluksiz ta'lim sirlari, bilimga oshno bolish yo'llari yoritilgan. Har bitta talabaga kerak bo'ladigan tajribalar orqali olimlar fikrlari yanada mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ZPD, pedagogika, ta'lim, tajriba.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение самостоятельного обучения. В частности, представлены научные исследования, опирающиеся на жизненный опыт, которые способствуют развитию у студентов уверенности в своих силах и навыков самомотивации. Наряду с этим, освещаются вопросы критического мышления, умения вести дискуссии и, конечно же, секреты непрерывного обучения, а также пути самообразования. Опыт, необходимый каждому студенту, подкреплён мнениями ученых.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, ЗБР (зона ближайшего развития), педагогика, образование, опыт.

Abstract: This article examines the role and significance of independent learning. Specifically, it presents scientific research based on life experience, which contributes to the development of students' self-confidence and self-motivation skills. Furthermore, it highlights critical thinking, discussion skills, and, of course, the secrets of continuous learning, as well as avenues for self-education. The experience necessary for every student is reinforced by the opinions of scientists.

Keywords: independent learning, ZPD (Zone of Proximal Development), pedagogy, education, experience.

Mustaqil ta'limning talabalar o'quv jarayonidagi ahamiyati nihoyatda muhim o'ringa egadir. Negaki, bilamizki har bitta fan chuqur izlanish, mehnat va konikmani talab etadi. Bular esa o'z o'rnida talaba- yoshlarning kelajagi uchun sarmoya va kafolat debochasi desak, adashmaymiz. Mustaqil ta'lim birinchidan





talabalarda ma'suliyatni va izlanishni takomillashtiradi. Ya'ni o'quvchi ozi ustida ishlaydi va qilgan tajribalari orqali uzini baholaydi. Barcha ma'suliyatni zimmasiya olgan holatda hayotiy tajribalarga sho'ng'iydi. Ikkinchidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ya'ni bunda talabalar barcha olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq qilib ko'radi. Uchinchidan, tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Mustaqil ta'lim har qanday tanqidiy fikrlar, qarashlar, muzokaralarni har tomonlama chuqur tahlil qilish qolbilyatini oshiradi. To'rtinchidan, uzluksiz ta'limni targ'ib qiladi. Mustaqil ta'lim ustida ish olib borgan o'quvchi har doim to'xtovsiz va aniq faktlarga asoslangan holatda ishni puxta qilishga chorlaydi. Har qanday kitob, jurnal, radio, televideniya va boshqa turli xil ijtimoiy tarmoqlardan mavzu uchun qollanmalar topib uni amaliyotga olib kiradi. Beshinchidan, mustaqil ta'lim motivation va faollikni oshiradi. Bunda talabalar ko'pincha oz o'rganish tezligi va usullari ustidan nazoratga ega bolsalar, uzlarini yanada g'ayratli va kuchli his qiladilar. Bu esa oz navbatida eng yaxwi akademik natijalarga olib keladi. Shu o'rinda mustaqil ta'limning ahamiyati borasida ham bir qator olimlarimizning fikrlari ham salmoqlidir. Xususan, John Dewey uzining "Democracy and Education" kitobida Ta'limning tajriba asosida rivojlanishini va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashini ta'kidlanadi. U o'quvchilarni o'z tajribalari orqali uzida yangi qobilyat va malaka kashf etishlari mumkin, bu esa o'quvchilarni uzi ham uzini bilim bilan ta'minlashi mumkin. Shu jumladan, Lev Vygotskiy "Mind in society: The Development of Higher Psychological Processes" kitobida mustaqil ta'limga shunday ta'rif beriladi. O'quvchilarda bunday jarayonlarda munosib taqdirlab, rag'batlantira ola bilishimiz kerakdir. Ya'ni Vygotskiyning o'quv jarayoni va mustaqil ta'lim haqidagi nazariyalari uning "yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) tushunchasi asosida shakllangan. Bu asarda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash ularni yanada kuchliroq izlanish olib borishiga zamin yaratadi deb takidlab o'tiladi. Qolaversa yana bir olimimiz Paulo Freire "Pedagogy of the Oppressed" asarlarida mustaqil ta'limni ahamiyatini korishimiz mumkin. Freirenin asari ta'limning jamiyatni o'zgartirishidagi roli va mustaqil ta'lim orqali o'quvchilar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni muhokama qiladi. Fikrimizni davom ettirar ekanmiz Richard E. Mayerning "Multimedia Learning" asari e'tiborimizni tortadi. Mayer o'zining kognitiv nazariyalariga asoslanib, mustaqil ta'lim va o'quvchilarni o'z sur'atlarida o'rganishga undovchi metodlarni o'rganadi. Ya'ni bunda har doim o'quvchilarga o'zining yoshidan, aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holatda bilim va konikma berish kerak. Bu yerda tezlik yoki kop kitob o'qishda emas balki o'qigan, izlagan bilimlarini puxta egallashida va uni





amaliyotda uzi uchun qollaganida deyiladi. Qarashlarimizni davomida Albert Banduraning “Self Efficacy: The Exercise of Control” asariga to‘xtalsak. Bandura o‘z o‘zini o‘rganish va mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan ishonchini oshirishda yordam beradi. Bu fikrlarga qo‘shilmasdan ilojimiz yoq, chunki hech narsa ishonchsiz bolmaydi. O‘ziga ishonchi baland bolgan o‘quvchini hech qanday to’siq to‘xtata olmaydi. U har doim kuchiga ishongan holatda davom etadi.

Mustaqil ta’lim eng avvalo o‘quvchilar uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bunda o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ozlari uchun yangi bitta soha va kelajak yaratib boradilar. O‘zini ustida ishlashi, kerakli materiallar izlashi, jamoaviy fikrlash, tanqidiy qarashlarni korib chiqish, diniy va dunyoviy ilmlarni ham o‘z o‘rnida o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. Basic Books
2. Vygotskiy , L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Kolb, D. S.(1984). Experiential Learning: Experience as the Source of learning and Development. Prentice Hall.
4. Knowles, M.(1980). The Modern Practice of adult Education: From Pedagogy to Andragogy. Cambridge Adult Education.
5. Dewey, J.(1938). Experience and Education. Macmillan.

